

24

Prezident farmoniga binoan, 2022-yil 1-iyundan byudjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi 12 foizga oshiriladi:

mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori 920 000 so'm

bazaviy hisoblash miqdori 300 000 so'm

YOSHLAR OVOZI

BIZ – KELAJAK BUNYODKORIMIZ!

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, adabiy-badiiy gazeta

31 (16484)
2022-yil, 21-may
shanba

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi.uz](#)

Yosh lider
4-bet

540 million so'mlik sport kompleksi qurilmoqda

Yoshlar siyosati
5-bet

Shijoat poyezdi manzilda!

Minbar
6-bet

"Kundalik.com"ning kundalik muammolari



MARKAZIY OSIYO
YOSHLAR FORUMI

“BIRLASHIB YUKSALAMIZ!”

batafsil
2-3-betlarda



MARKAZIY OSIYO YOSHLAR FORUMI: “BIRLASHIB YUKSALAMIZ!”

Bugun ilm-fan, sport hamda axborot texnologiyalari sohasida muvaffaqiyatga erishayotgan yoshlar uchun tarixiy kun.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan Toshkent viloyati Yuqorichirchiq tumanidagi Astrum IT akademiyasida “Markaziy Osiyo yoshlar forumi” bo‘lib o‘tdi.

Qardosh davlatlar yoshlari o‘rtasida ishonch va do‘stlik aloqalarini yanada mustahkamlash, yoshlarni qo‘llab-quvvatlovchi tashkilotlararo hamkorlikni kuchaytirish, kelgusidagi ijtimoiy loyiha hamda dasturlarni samarali amalga oshirish, mintaqadagi intellektual salohiyatga ega yoshlarni ezgulik yo‘lida birlashtirish, mintaqqa yoshlarining axborot texnologiyalari yo‘nalishida tajriba almashishiga ko‘maklashish kabi maqsadlarni o‘z oldiga qo‘ygan forum ko‘tarinki ruhda davom etmoqda.

“Birlashib yuksalamiz” shiori ostida boshlangan forumning ochilish marosimida Markaziy Osiyo davlatlarining yetakchi vakillari, jumladan, **O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi direktori, senator Alisher Sa’dullaev, Turkmaniston Respublikasi Sport va yoshlar siyosati vaziri Gulmurod Agamirodov, Tojikiston Respublikasi Tojikiston hukumati qoshidagi Yoshlar ishlari va sport qo‘mitasi raisining birinchi o‘rinbosari Shabnam Karim Rahimzoda, Qozog‘iston Respublikasi Axborot va ijtimoiy rivojlanish vaziri o‘rinbosari Aleksandr Danilov, Qirg‘iziston Respublikasi Madaniyat, axborot, sport va yoshlar siyosati vazirligi Yoshlar siyosati boshqarmasi boshlig‘i Taalaybek Berdiyev** hamda bilimli yoshlari qatnashishdi.

Forumning ochilish marosimida Yoshlar ishlari agentligi direktori, senator **Alisher Sa’dullaev** so‘zga chiqib, yoshlar forumida ishtirokchi mamlakatlarning faol yoshlari kun tartibidagi eng muhim masalalarni ochiq muhokama qilib, yangidan-yangi loyihalar, g‘oyalar ustida ishlash imkoniga ega bo‘lishini, shaxmat, ilm-fan, IT sohasidagi mutaxassislardan iborat Markaziy Osiyo yoshlarining fikr, g‘oya va takliflari juda muhim ekanini ta’kidladi. “Mamlakatlarimizning buyuk tarixini eslab, mana shu tarixga mos yoshlarni qo‘llab-quvvatlashimiz, yangi g‘oyalarni ilgari surishimiz lozim. Sizlarni Astrum IT akademiyasiga taklif qilganimizning boisi ham kelajagimiz bevosita bog‘liq bo‘lgan IT texnologiyalarini rivojlantirish borasida “nimalarni amalga oshirishimiz kerak?” degan savolga birgalashib javob izlashdir”.

Marosimda Markaziy Osiyo davlatlari vakillari ham so‘zga chiqib, qadim-qadimdan Markaziy Osiyo ilm-fan beshigi bo‘lgani, buyuk allomalar yetishib chiqqani, bugungi forum do‘stona munosabatlarni mustahkamlashini ta’kidladi.

Tadbirda Muso al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Ahmad al-Farg‘oniy, Abu Nasr Forobiy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug‘bek, Abay Qo‘nonboy, Maxtumquli, Kamol Xo‘jandiy kabi Markaziy Osiyo sivilizatsiyasida yetakchi o‘rin egallagan ilm egalari bag‘ishlangan videorolik hamda forumning maxsus do‘stlik logotipi namoyish etildi.

Mehmonlar Astrum IT akademiyasida yoshlarga yaratilgan imkoniyatlar bilan tanishdi.



Fotolar: **Zohid Malikov, Nodirbek Nishonov**

MAQSAD VA FIKRLAR MUSHTARAK

– Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan tashkil etilgan Markaziy Osiyo yoshlar forumida eng asosiy urg‘u mintaqqa yoshlarining bilimi, salohiyati, dunyoqarashi va g‘oyalarni yagona maydonda uyg‘un holda ko‘rishga qaratildi. Mintaqamiz Osiyo qit‘asida o‘z o‘rni va mavqeyiga ega. Eng muhimi, aholisining salmoqli qismi yoshlardan iborat. Agar biz to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatib, iqtidori, salohiyati, bilimi, tadbirkorlikka qiziqishi va g‘oyalarni to‘g‘ri baholab, o‘z vaqtida qo‘llab-quvvatlay olsak, ular Markaziy Osiyoning rivojlanishiga ulkan hissa qo‘shadi. Buni biz ham iqtisodiy, ham ijtimoiy rivojlanishda ko‘rishimiz mumkin.

Forumda qo‘shni mamlakatlarning yoshlar masalalari bilan shug‘ullanuvchi mutasaddilari, faol yoshlari, jamoatchilik vakillari o‘z taklif va yangi g‘oyalarni muhokama qilyapti. Bu bizga nima beradi? Avvalo, hozirgi mavjud sa-

lohiyatimizni oshirish, jamiyatdagi mushtarak muammolar yechimini topish, mamlakatlarimiz o‘rtasidagi madaniy-ma‘rifiy aloqalar, yuqori texnologiyalar, IT sohasidagi hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Bu nufuzli tadbirning Astrum IT akademiyasida tashkil etilgani bejiz emas. Hozirgi davrni axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shu bois yoshlar forumini tashkil qilishda ikkita asosiy yo‘nalishga urg‘u berdik. Markaziy Osiyoning eng yosh shaxmatchilari bugun bu yerda jamlandi. Shuningdek, forum doirasida “Zakovat” intellektual o‘yini o‘tkazilmoqda. Kelgusida bu bellashuvni Markaziy Osiyodagi umumiy ma‘rifiy harakatga aylantirish g‘oyasi bor.

Astrum IT akademiyasi mehmonlarda unutilmas taassurot qoldirdi. Ular shu akademiyaga yoshlarni yuborish istagini bildirmoqda. Bu ham mamlakatimizda IT sohasiga qaratilayotgan

e‘tiborning mahsuli. Hademay Markaziy Osiyoning eng bilimlilar yoshlari mana shu dargohga kelib, tahsil oladi, yangi g‘oyalar ustida ishlaydi. Bu bizning kelajakdagi birdamligimiz mustahkamlanishi, yangi loyiha va tashabbuslarimiz ro‘yobi uchun katta turki bo‘ladi. “Birlashib yuksalamiz!” shiori ostida Markaziy Osiyo yoshlari birlashdi. O‘zbekiston mana shu tashabbusning markazida turibdi.

Yana bir e‘tiborli jihati shuki, mamlakatimizdagi “Yashil makon” umummilliy loyihasining ahamiyati tushuntirilganda hamkorlarimiz akademiyada hududida “Markaziy Osiyo yoshlari bog‘i”ni barpo etish tashabbusini bildirdi. Bu ham ramziy ma‘noga ega juda katta tashabbus. Har bir vazirlik va idoradan kelgan vakillar, yosh volontyorlar buni mamnuniyat bilan qabul qildi. Bu yoshlar yashil makon uchun, musaffo kelajak qurish uchun mushtarak harakat qilayotgani belgisi.



Alisher SA‘DULLAYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi direktori, senator:



**Malika
ERMAMBETOVA,**
Qirg'iziston Respublikasi
delegatsiyasi vakili:

– Azaldan o'zbek-qirg'iz xalqlarining bir-biriga muhabbati, oqibati mustahkam bo'lgan. Buni biz nafaqat ajdodlarimiz, balki bugungi kundagi davlat rahbarlarimiz timsolida ham ko'ramiz. Bugungi forumni bema'lol Turkiya xalqlar birlashuvi, desam yangilishmagan bo'laman. Chunki tilimiz, dinimiz, qadriyatlarimiz, urf-odat-u an'analarimiz uyg'un bo'lgan Markaziy Osiyo elatlari bugun dil-lashmoqda.

Biz, yoshlar bir-birimizning loyihalarimizni o'rtoqlashib, g'oya-takliflarimizdan bahramand bo'ldik. Bu kabi do'stona forumlar ko'proq o'tkazilishini xohlaymiz. Bu bizga shijoat va ishonch baxsh etadi.




Firdavs SOBIROV,
Xalqaro olimpiada g'olibi, forum
ishtirokchisi (O'zbekiston):

– Qator xalqaro olimpiadalarda qatnashgan bo'lsam-da, xorijlik tengdoshlarim bilan do'stona suhbatlashishning imkoni bo'lmagan. Bugungi forumda bevosita Markaziy Osiyodagi iqtidorli do'stlarim bilan hamfikr bo'ldim. Ular bilan tanishib, loyihalarimizni baham ko'rmoqdamiz. Ayniqsa, menga qozog'istonlik do'stlarimizning g'oyalari ma'qul keldi. Kelgusida ular bilan doimiy aloqada bo'lib, nafaqat yurtimiz, balki Markaziy Osiyo davlatlari uchun samarali yangiliklar yaratish niyatidaman.

**Alig'azi
AIDARXANOV,**
Qozog'iston Respublikasi
delegatsiyasi vakili:

– Delegatsiyamiz IT sohasidagi turli loyihalar taqdimotini o'tkazdi. Iqtidorli shaxmatchilardan iborat jamoamiz ham shu yerda. Biz maktab o'quvchilari uchun tayyorlangan ta'lim platformasini taqdim etyapmiz. Boshqa mamlakatlardan kelgan do'stlarimizning loyihalari bilan ham tanishyapmiz. Ayniqsa, yurtimizdagi Astrum IT akademiyasi bizda katta taassurot qoldirdi. Zamonaviy kompyuterlarda dasturlash bilan mashg'ul bilimli yoshlarga havas qildik. Bu muassasa IT yo'nalishida mutaxassislar tayyorlaydigan ijodiy maydon vazifasini o'tashi va unda shug'ullanadigan yoshlar Uchinchi Renessans poydevorini bunyod etishiga ishonchim komil. Global dunyoda turli mamlakatlar yoshlarining fikr-mulohazalarini bir joyda to'plash, birgalikda yuksalish, tajriba va bilim almashish – juda ulug' tashabbus.



**Chonibeg
DAVRONOV,**
Tojikiston Respublikasi
delegatsiyasi vakili:

– Ilm insonni ulug'laydi, uni yuk-saklarga ko'taradi. U na til, na millat tanlaydi. Muhimi, ezgu g'oyalarga yo'g'rilgan bo'lsa bo'lgani. Buning isboti sifatida mazkur forumni aytish mumkin. Turli sohalardagi iqtidorli yoshlarni o'z bag'riga chorlagan Markaziy Osiyo yoshlar forumi bizni bir yerga jamul-jam qildi. Barchaning ko'zida quvonch. Har birimiz o'zgacha taassurot va hayajondamiz. Niyatimiz, forumdan keyin ham bu do'stona uchrashuvimiz davomli bo'lsin. Zero, bizning ezgu maqsadimiz, maslagimiz bitta.



**Zubayda
XOJAMOVA,**
Turkmaniston Respublikasi
delegatsiyasi vakili:

– Markaziy Osiyo davlatlari yoshlari bilan tanishib, ular bilan muloqot qilish imkoniyati yaratilganidan mamnunman. Yoshlar forumining asosiy maqsadi mintaqqa yoshlarini birlashtirishdir. Anjuman qiziqarli tadbirlarga boyligi bilan yodimda qolmoqda. Toshkent shahri bo'ylab sayohat, "Yoshlar bog'i"dagi daraxt ekish marosimi, texnoparkka ekskursiya maroqli kechdi. Xullas, forumda o'zimga ishonchim yanada ortdi.



MEMORANDUMLAR IMZOLANDI

Forum ko'plab tadbirlarni o'z ichiga oldi. Xususan, xalqaro yosh shaxmatchilar turniri tashkil qilindi. Turnirning mukofot jamg'armasi 10 000 000 so'm bo'lib, turnirda 33 nafar shaxmatchi kuch sinashdi. O'g'il bolalar o'rtasida 1, 2-o'rinlar o'zbekistonlik Javohir Sindorov hamda Nodirbek Yoqubboyevga, 3-o'rin qozog'istonlik Nogerbek Kazibekka nasib qildi.

Qiz bolalar o'rtasida 1-o'rinni Aziza Tursunova, 2-o'rinni Bahora Egamberdiyeva, 3-o'rinni Afruz Hamdamova (uchalasi ham o'zbekistonlik) qo'lga kiritdi.

Forum doirasida Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston davlatlarining yoshlar siyosatiga mas'ul vakillari bilan ikki va ko'p tomonlama uchrashuvlar tashkilatlashildi. Muzokaralardan ko'zlangan asosiy maqsad davlatlarda yoshlarga yaratilgan imkoniyatlar bilan tanishish, o'rtoqlashish va Markaziy Osiyo mintaqasidagi yoshlar uchun foydali memorandumlar tuzishdan iboratdir.

Astrum IT akademiyasida "Marka-

ziy Osiyo yoshlar bog'i"ning tantanali ochilish marosimi ham o'tkazildi.

Forumning ikkinchi kunida yoshlar Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi ixtisoslashtirilgan maktabga, "Yangi O'zbekiston" bog'i hamda tarixiy qadamlarga, kutubxonalarimizga sayohat uyushtirdi.

Ishirokchilar bilimini mustahkamlash, kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda kitob mutolaasiga muhabbatini yuksaltirish maqsadida "Zakovat" intellektual o'yini o'tkazildi. G'olib jamoalar maxsus sovg'alar bilan taqdirlandi.

Shu bilan forumning Astrum IT akademiyasida o'tkazilishi belgilangan tadbirlari nihoyasiga yetdi. **21-23-may kunlari Markaziy Osiyo yoshlar forumi doirasida Andijon viloyatida "O'zbekiston-Qirg'iziston yoshlar forumi", Farg'ona viloyatida "O'zbekiston-Tojikiston yoshlar forumi" o'tkaziladi.**

Dilnoza ABDUHAMIDOVA,
Muhammadshukur
MUHAMMADJONOV

"Yoshlar ovozi" muxbirlari



540

MILLION SO'MLIK SPORT KOMPLEKSI QURILMOQDA



Mahallamiz yoshlari uchun tashkil etilgan teatr

Mo'jazzina xonamiz yoshlar bilan doim gavjum. Taklif, tashabbus va loyihalari ham ko'p. Eng saralari qo'llab-quvvatlanib, amalda tatbiq etib borilyapti. Sport kompleksi ana shunday tashabbuslar natijasidir.

Gap shundaki, yoshlarimiz tadbirkor tomonidan qurilgan birgina sport maydonida kecha-yu kunduz futbol o'ynashardi. Yoshlarning sportga ishtiyoqini ko'rib, sport maydonlarini ko'paytirish kerakligini sezdim va Respublika ishchi guruhiga mahallamdagi bo'sh yer maydonida sport kompleksini qurish taklifini bildirdim. Taklifimiz ma'qullangach, loyihalashtirish ishlari boshlab yuborildi. Hozir qiymati 540 million so'mlik sport kompleksi qurilishi qizg'in pallada. Kompleks bitsa, yoshlar bu yerda bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazadi.

QISHLOQ YOSHLARINING TEATRGA MEHRI OSHDI

Mahallamiz yoshlarining madaniy hordiq chiqarishini ta'minlash uchun teatr direktori bilan uchrashdim. U kishidan 150 nafardan oshiqroq bolalarga bepul teatr qo'yib berishini iltimos qildim. Avvaliga rad javobini berdi. Uzoq tortishuvdan so'ng teatr rahbarini yoshlarga bepul spektakl tashkil etib berishga ko'ndirdim.

Keyingi masala yoshlarni teatrga olib borish uchun transport topish bo'ldi. Buning uchun tuman hokimligiga bordim. Kun qoraygan paytda tuman hokimi Botirjon Mirzaqulov bilan ko'rishib, transport ajratib berishini so'radim. Tuman hokimi taklifimni ma'qullab, nechta avtobus

kerak bo'lsa ajratib berishini aytdi. Bu kabi tashabbuslarni ko'paytirish kerakligini ta'kidlab, "Men va sektor rahbarlari senga yordamchimiz, doim sizlarni qo'llaymiz", dedi.

Bundan ruhlaniib, 3 ta avtobusda 150 nafar yoshlarni teatrga olib bordim. Teatrga birinchi bor kirgan qishlog'imiz yoshlari Tog'ay Murod qalamiga mansub "Otamdan qolgan dalalar" spektaklini ko'rib, juda ta'sirlanib qaytishdi. Qishloq yoshlarining teatrga mehri oshdi. Shu bilan har oyda teatrga borishni yo'lga qo'ydik.

YOSHLAR BOG'I TASHKIL ETILDI

"Yashil makon" loyihasi doirasida mahalla yoshlarini yig'ib, mahallamiz hududida yoshlar bog'i tashkil qilishni o'yladik. Mahalla ko'chalarini aylanib, qarovsiz joylarni ko'zdan kechirdik. Oxiri bog' uchun ariq bo'ylarini mo'ljalladim.

Endi bizga ko'chat kerak edi. Ko'chat masalasi yana tuman hokimiga kelib taqadd. O'ylamay yana hokimning oldiga bordim. Hokim 500 tupdan ortiq mevali va manzarali ko'chatlar ajratib berish bo'yicha mas'ullarga topshiriq berdi. Mahallada katta hashar qilib, yoshlar bog'ini yaratdik, ariq bo'ylariga manzarali daraxtlar ekdik. Ertaga kimdir soyasida dam olsa yoki mevasini yesa, bizni eslashar, degan umidimiz bor.

QORAQALPOQ YOSHLARI BILAN

Yaqinda Sirdaryo tumani hokimligi tomonidan tuzilgan ishchi guruh bilan hamkorlikda Qoraqalpog'iston Respublikasi Qonliko'l tumaniga safar qildik. Menga Qonliko'l tumanining Navro'z ovulida



Tursunqul XUSANOV, Sirdaryo tumanidagi "Hikmatli" mahallasi yoshlar yetakchisi

yoshlar uchun namunali sport va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni o'tkazish yuklatildi.

Avvalo Navro'z ovuli yoshlar yetakchisi bilan tanishdim. Unga o'tkazilishi kerak bo'lgan tadbirlar rejasini aytdim. Birinchi bo'lib "Zakovat" intellektual o'yinini o'tkazdik. Unda ovuldagi 2-maktab o'quvchilari ancha bilimli va topqir ekanini ko'rsatishdi. G'oliblarni kitoblar bilan taqdirladik.

Mahallada madaniyat xodimlari bilan birgalikda konsert dasturini uyushtirdik. Yoshlarni gulxan atrofiga yig'ib, qoraqalpoq yoshlari uchun birdek yoqimli bo'lgan, hamma sevib kuylaydigan "Jiltir ko'yak" qo'shig'ini kuyladik. Barcha yoshlar jo'r bo'lishdi.

Aytgancha, safarga ketishda o'zim bilan ikki nafar bo'ydoq yigitni ham olib ketgandim. Nasib, tez kunlarda Qoraqalpoq va Sirdaryo quda-andachiligi yo'lga qo'yiladi. To'y bo'lgani yaxshi-da, nima dedingiz-a?!

NIMADIR KUTISHADI

Xotira va qadrlash kuni arafasida mahallamiz yoshlarining


"Tursunqul aka yana nima yangilik qilarkan", degan shivir-shivir gaplari qulog'imga yetib keldi. O'zimcha mag'rurlandim. Demak, yoshlar mendan nimadir kutadigan, ishonadigan bo'ldi.

Shunda mahalla yoshlarini Zangi ota ziyoratgohiga olib borishni niyat qildim. Olib borish va qaytish uchun avtobus kerak? Yana hokimiyatga qarab yo'l oldim. Tuman hokimi Botirjon Mirzaqulov "Faqat senda tashabbus bormi, qolgan 37 yoshlar yetakchilarida tashabbus yo'qmi?", - dedi. Ichimda "Ular menga o'xshab bez bo'lmasa kerak", dedim hokimning gapidan so'ng. Xullas yoshlar ziyoratdan xursand bo'lib qaytishdi.

ISHONCH...

Bu tuyg'u men uchun eng muhimi. Bugungi kunda yoshlar hatto ota-onasiga aytmagan gaplarini menga aytishadi. Ularga to'g'ri yo'lni ko'rsatish, maslahat berish orqali o'z oldiga qo'ygan maqsadlari tomon olib boryapman. Mahalla yoshlari orqasida suyanchig'i borligiga, hammasi ular uchunligiga ishonishi kerak. Shunda yuksalish bo'ladi, shunda natija bo'ladi.

Navro'z ovulidagi ayrim xonadonlarda bo'ldik



2668 TA YOSH OILAGA “YOSHLAR UYLARI” BERILDI



**Abdurahob
JAYSONOV,**
O'zbekiston Milliy universiteti
doktaranti

– Shu kunga qadar oilam bilan ijara da yashab kelardim. Shukrki, Yangi hayot tumani hududida barpo etilgan “Yoshlar uylari” dan birining sohibiga aylandim. Yangi uylar ikki va uch xonali bo'lib, bu yerda yosh oilalarning to'kin, farovon hayot kechirishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Farzandlarimiz uchun zamonaviy o'yin maydonchalari ham qurilgan. “Yoshlar uylari” ning imtiyozli kredit asosida, boshlang'ich to'lovlarisiz berilayotgani yosh oilalar uchun katta imkoniyatdir. Uylarning boshlang'ich badali 25 foizi O'zbekiston yoshlar ittifoqi tomonidan to'lab berilgani yanada qulaylikdir. Yangi uyga ega bo'lgan biz kabi yosh oilalarning quvonchi cheksiz.

Bugun Abdurahob singari ijara da yashab yurgan yosh oilalarning aksariyati “Yoshlar uylari” ga ega bo'lib, o'z uyida, farzandlari bag'rida baxtiyor hayot kechirishmoqda.

Yosh oilalar muammolarini o'rganish, oilaviy ajrimlarni kamaytirish, yoshlarni qiziqtirib kelayotgan savollar va dolzarb muammolarga o'z vaqtida yechim topish maqsadida yagona platforma – “yoshoilalar.uz” elektron sayti va mobil ilovasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Shu bilan birga, platforma orqali reproduktiv salomatlik, farzand tarbiyasi, sog'lom turmush tarzi, huquq, din va psixologiyaga oid savollarga bepul videokonsultatsiyalar berib borilmoqda.

Yosh oilalar ajrimlarini kamaytirish maqsadida amalga oshirilayotgan targ'ibot ishlarimizning ommaviylikini ta'minlash,

yoshlarning huqiy savodxonligini oshirish uchun targ'ibot materiallari, maxsus videorolik, buklet, infografika va maxsus flaelar nashr ettirilib, tarqatildi. “Besh muhim tashabbus” doirasida chekka hududlarda tikuvchilik sexlari tashkil etilib, 10 ming nafar ayollar bandligi ta'minlandi.


O'tgan yili 11-oktabr – Xalqaro qizlar kuni munosabati bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar hamda Toshkent shahri Yoshlar markazlarida “Sening tashabbusing – sening kelajaging uchun” shiori ostida forum o'tkazildi. Forumda “Yoshlar daftari” ga kiritilgan 150 nafardan ortiq xotin-qizlarni tadbirkorlikka jalb qilish maqsadida imtiyozli kredit, o'zini o'zi band qilishga zarur bo'lgan asbob-uskunalar va mehnat qurollarini xarid qilishlari uchun subsidiya, “Har bir yoshga bir gektar” tamoyili asosida yer maydoni ajratilgan, haydovchilik va qayta tayyorlov kurslarida o'qitish xarajatlari hamda to'lov-kontraktlarining bir qismi qoplab berilgan. O'nga yaqin yo'nalishlarda imtiyozli kreditlar uchun maxsus sertifikatlar topshirildi. Shu bilan birga, forum doirasida “Yoshlar daftari” ga kiritilgan 120 nafar yosh xotin-qizga subsidiya asosida tikuv mashinalari tarqatildi.

Mahallalardagi yosh xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish orqali davlat boshqaruvidagi ishtiroki va rolini kengaytirish maqsadida “Qizlar ovozi” klubi (koordinatlar) faoliyati yo'lga qo'yildi. Bugun mahallalar kesimida ularni saylash ishlari olib borilmoqda.

Bundan tashqari, yosh oilalar o'rtasida “Yosh kitobxon oila” tanlovini o'tkazib kelyapmiz. Ilmga oshno bo'lgan yoshlar esa oilaviy hayotga ham mas'uliyat bilan munosabatda bo'lishadi.

Nilufar MATKARIMOVA,

Yoshlar ishlari agentligining ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlar bilan ishlash bo'limi bosh mutaxassisi



SHIJOAT POYEZDI MANZILDA!

Maqsad, energiya, birdamlik! Ha, gap siz o'ylagandek sardorlar haqida ketmoqda.

Yil davomida orziqib kutilgan, kreativ loyihalar va ko'pgina tanlovlarni o'zida jamlagan “Kamalak” bolalar tashkilotining “Vatan, do'stlik va baxtli bolalik uchun” shiori ostidagi an'anaviy XXI anjumani Bo'stonliq tumanidagi “Oqtosh” bolalar sog'lomlashtirish oromgohida qizg'in davom etmoqda.

Shuni alohida aytishni istardimki, viloyatlardan kelgan lider yoshlar quvnoq kuy-qo'shiqlar, xush kayfiyat bilan kutib olindi.

– *Bunchalik tantana bilan kutib olishlarini tasavvur ham qilimgandik, –* deydi yoniq yurak va shahdam qadamlar bilan kelgan Farg'ona viloyati Yoshlar ittifoqi sardori **Muhammadyusuf Erkinov.** – *O'yin-kulgi va e'tibordan yanada ko'p energiyaga to'ldik. Hammasi biz o'ylagandan-da a'lo darajada boshlandi. Barchaga omad! Oldinda bizni muhim tanlovlar kutmoqda.*

Respublika “Kamalak” bolalar tashkiloti raisi Madina Baratova fikriga ko'ra, bu yilgi anjumanda “Kamalak bilimdonlari”, “Eng namunali Sardorlar kengashi”, “Kahood” viktorinasi, “Zakovat” intellektual o'yini o'tkazish rejalashtirilgan. Semi-

narlarda faol ishtirok etgan sardorlar rag'batlantiriladi, har biriga maxsus sovg'alar bor. Faol bo'lmaganlar esa aksincha, jarimaga tortiladi. Eng muhimi, sardorlarning vaqtini mazmunli o'tkazish, keyingi faoliyatida qo'l keladigan tajribalarni o'rgatishdir.

Kun tartibidan o'rin olgan rang-barang loyihalar, tanlovlarning respublika bosqichi juda qizg'in ruhda tashkil etilib, g'oliblar diplom, statuetka va qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlanib borilyapti. Shuningdek, 500 nafar ishtirokchilarning vaqti mazmunli va samarali o'tishi uchun guruhlar o'rtasida “Xalqlar do'stligi” raqslar tanlovi, “Quvnoqlar va zukkolar” tanlovi, “Trash Zero” ekologik aksiyasi, “Bo'yinbog'siz uchrashuv”, “Bitiruvchilar kechasi”, “Anjuman CUP” futbol musobaqasi, “Quvnoq estafeta”, “O'zbekistonlik” filmi namoyishi va kechki madaniy dasturlar tashkil etilmoqda.

Guruhlar kesimida vazirlik, idora va tashkilot rahbarlarining ishtirokchilar bilan “Mahorat darslari” bo'lib o'tmoqda. Hozir rahbar lavozimlarda faoliyat yuritayotgan sobiq “Kamalak”chilar bilan suhbatlar ham samimiy ruhda kechmoqda.

23-may kuni anjuman yakunlanib, 24-may kuni ishtirokchilar Toshkent shahri bo'ylab sayohat qiladi.

“Kamalak” bolalar tashkiloti a'zolari 3,5 million nafarni tashkil etadi. Respublikada Sardorlar soni 534 300 nafar. Shundan 408 086 nafari sinf sardorlari, 123 110 nafari maktab sardorlari, 2 894 nafari tuman va shahar sardorlaridir.

Komila HAMROYEVA



Sanobar RUSTAMOVA,

Xovos tumanidagi 24-IDUM boshlang'ich sinf o'qituvchisi



“KUNDALIK.COM”NING KUNDALIK MUAMMOLARI

Respublikamizning barcha maktablarida baholash tizimining yangicha usuli, ya'ni "Kundalik.com" joriy etilgan. Ikki yildirki qog'oz jurnal va qog'oz kundaliksiz o'quvchilarni elektron baholashda ushbu tizimdan foydalanyapmiz. Shu bois bu tizim haqida o'z fikrlarimni o'rtoqlashmoqchiman. Balki qaysidir o'qituvchining ham ko'nglidagi fikrlar meniki singaridir.

Bu tizim joriy qilinishidan oldin ta'limning bizdan-da yuqori bo'g'inlarida ming bir sinovdan o'tib, sifat samaradorligi aniqlan-gandan so'nggina ta'limga kiritilgandir. Ammo oddiy bir boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi sifatida aytishim mumkinki, quyi sinflar uchun baholashning bu usuli to'g'ri kelmayapti.

Tasavvur qiling, bir sinfda 30-35 ta o'quvchi o'qiydi. Har bir o'quvchi 45 minutlik dars davomida ham yangi mavzuni o'zlashtirishi, ham uyga berilgan vazifani taqdim qilib, baho olishi kerak. Oddiy ishchi maosh olgandek, o'quvchi ham baho olishni xohlaydi. Bahosini o'rtoqlari, ota-onasiga, bobo-buvisiga, aka-opasiga ko'rsatgisi, olqish olgisi keladi.

Biroq ko'p oila farzandlari, ayniqsa, qishloq joylardagi o'quvchilar "Kundalik.com" tufayli bu quvonchdan bebahra qolishyapti. Chekka hududlardagi maktab o'quvchilarining 15-20 foizigina katta ekranli ijtimoiy tarmoqlarga bema'lol kira oladigan telefonlardan foydalanadi, trafikli paketlarning narxi ham qimmat. Mavsumiy ish bilan shug'ullanadigan ba'zi ota-onalar pulni telefonga sarflagandan ko'ra uyga biror narsa olganim ma'qul deydi. Yana ba'zi ota-onalar borki, YouTube, Tik-tokdan ortib, farzandning bahosiga qiziqmaydi. O'quvchilarimning ota-onalari "Qog'oz kundalik yaxshi edi, kundalik daftar yo'qligi sababli farzandim darsga qiziqmay qo'ydi, hatto dars jadvalini ham bilmay qolyapti", deb ta'kidlashmoqda. Shaharda bu tizim o'zini oqlayotgandir, lekin qishloqlarda buning aksi bo'lmoqda.

Bir hamkasbim bilan suhbatlashganimda u ham shunday mavzudan so'z ochib qoldi: "Qog'oz kundalik va qog'oz jurnal yaxshi edi. O'quvchi uchun bahoning qadri, jurnalga qo'yilgan bahoning qiymati, mas'uliyati bor edi. Ko'z oldida qo'yilgan baho ular uchun ogohlantirish, hushyorlik, ruhlantirish

edi. Endi-chi, internetimiz ishlasa qo'yamiz, bo'lmasa kompyuter xonasiga chiqib wi-fidan foydalanamiz. O'quvchilarimning o'qishi sustlashganini ko'rib, rasmiy bo'lmasa-da, qog'oz kundalikka o'rgatdim. Ishonasismi, hammasi jonlanib qoldi. Darsliklar joyida, "5" baho olish uchun o'zaro raqobatda,

davomat ham yaxshi (chunki bir kun kelmasa, "5"lar soni bo'yicha o'rtoqlaridan ortda qolaman deb o'ylaydi) bo'lib qolgan. Ota-onalar ham kundalikdagi vazifalarga qarab qiynalmay farzandlari bilan shug'ullanishyapti. Ko'pchiligi telefonlari yo'qligi sababli kunda nazorat qilolmayotgan ekan".

Hamkasbim aytgan fikrlarini tinglar ekanman, shunday jonkuyar, o'quvchi taqdiriga befarq bo'lgan ustozlar borligidan quvondim. Oylik maoshlari 2 million 200 ming, 2 million 500 ming so'm atrofida bo'lsa-da, o'zidan, ro'zgoridan ortib o'quvchilari uchun turli rag'bat vositalari oladi, ko'rgazmali qurollar yasaydi. Mehnati samarasini ko'rib, o'zida mamnunlik hissini tuyadi.

"Kundalik.com" tizimiga qaytsak. Bu tizim o'quvchi emas, o'qituvchilar uchun ko'proq kerak ekan. Dars mavzulari, vazifalari, baholar elektron yuritiladi. Shunday bo'lsa-da, ko'pgina texnik kamchiiklar va boshqa sabablar tufayli "Kundalik.com" baholari haqqoniylikdan uzoqlashib qolyapti. Masalan,

o'rta o'zlashtiruvchi o'quvchiga "3" qo'yaversangiz foiz tushib ketarmish, "4" baho qo'ysangiz to'g'ri kelmaydi.

Yana bir gap, boshlang'ich sinflarda darsdan bir muddat chalg'iy olmay, bolalar bilan birga o'qiy, birga ishlaysiz, tushunishga ulgurmag'anlar bilan tanaffusda, darsdan keyin ishlashingizga to'g'ri keladi. Shunday paytda telefon titib, joyingizda o'tirib "Kundalik.com" bilan ishlay olasizmi? Bu masalada boshqa ustozlar qanday fikrda bo'ladi bilmadim-u, ammo bu ham o'qituvchining darsdan chalg'ishiga sabab bo'ladi. Qaysidir ustozlar men bilan hamfikrdir, balki ba'zilari noto'g'ri aytyapsizder, ammo bu shunchaki mening shaxsiy fikrim, targ'ibot emas.

CHEKKA HUDUDLARDAGI
MAKTAB O'QUVCHILARINING
15-20 FOIZIGINA KATTA EKTRANLI
IJTIMOIY TARMOQLARGA
BEMALOL KIRA OLADIGAN
TELEFONLARDAN FOYDALANADI.

HUNARMANDCHILIK FAOLIYATI UCHUN MULKIY IMTIYOZLAR

177 IMKONIYAT



Prezidentimizning 2017-yil 17-noyabrdagi "Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga ko'ra, hunarmandlarga berilgan obyektidan kamida 5 yil hunarmandchilik sohasida foydalanish sharti bilan quyidagi huquqlar beriladi:

- doimiy savdo joylariga ega bo'lmagan va vaqtinchalik joylarda savdo qiluvchi hunarmandlar tomonidan kassa apparatlari va savdo terminalaridan foydalanish, shuningdek, savdodan tushgan naqd pul tushumini tijorat banklariga inkassatsiya qilish ixtiyoriy tartibda amalga oshiriladi;

- hunarmandlar uchun davlat mulki obyektlari uchun ijara to'lovi belgilangan eng kam to'lovning 50 foizi miqdorida belgilanadi;

- xususiy lashtirish doirasida ("nol" qiymatda) sotiladigan davlat mulki obyekti hunarmandga baholangan qiymatida (boshlang'ich investitsiya majburiyati bilan) ochiq savdoga qo'ymasdan, to'g'ridan-to'g'ri shartnoma asosida sotiladi;

- bir necha hunarmand bir obyektni ("nol" qiymatda) olish istagini bildirs, ochiq savdoda faqat ushbu hunarmandlar ishtirok etadi.

IMTIYOZNI TAQDIM ETISH TARTIBI VA MUDDATLARI:

Davlat ko'chmas mulki obyektlarini sotish yoki ijara berish bo'yicha savdolar "E-IJRO AUKSION" elektron savdo maydonchasi orqali amalga oshiriladi.

Hududlarda mavjud bo'sh turgan obyektlar ro'yxati haqida quyidagi tashkilotlarga murojaat qilish orqali ma'lumot olish mumkin:

- Davlat aktivlarini boshqarish agentligining Bo'sh turgan obyektlardan samarali foydalanishni tashkil etish markazi va uning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar hududiy boshqarmalari;

- hududiy savdo-sanoat palatasi tuzilmalari;

- Tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi.

Imtiyozdan foydalanish uchun nomzodlarning yoshi chegaralanmagan. Imtiyozni qo'llash bo'yicha murojaatlar "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi qonunda belgilangan muddatlarda ko'rib chiqiladi.



BOLALIGINI YO'QOTGAN AVLOD

YOXUD TELEFON BALOSI

Maktab davrlarida telefon degan "matoh" borligini eslolmayman. U paytlar o'quvchilarda telefon bo'lishi juda havas qilarli hodisa edi. Boshlang'ich sinfni bitirganimizda ba'zi tengdoshlarimiz qo'lida telefon paydo bo'la boshladi. Lekin sensorli telefonlar kamdan-kam uchrardi.

E'tibor beradigan bo'lsak, bularning deyarli hammasi tugmali (knopkali) telefonlar. Ulardan faqat aloqa vositasi sifatida, biroz zamonaviylaridan esa musiqa tinglash, video olish va ko'rish uchun ham foydalanish mumkin edi. Eng muhimi, kishini o'ziga batamom jalb qilib qo'yadigan jihati, xususan, o'yinlari bo'lmas edi. Bizning eng qiziqib o'ynaganimiz "Iloncha" (shunday atardik) o'yini edi. Shuni ham zerkanda o'ynardik. Lekin ochiq-oydin aytish mumkin, "Iloncha"dan ko'ra qishloq bolalari bilan o'ynaydigan o'yinlarimiz ming chandon qiziqarliroq edi.


Hozirgi aksariyat ota-onalar esa farzandlarini tinchitish uchun qo'lga telefon tutqazishadi. Ayni paytda 1-sinf o'quvchilarida ham telefon bor. Gap uning qimmat yoki arzonligida emas. Aytmoqchi bo'lganim, o'sha telefonni farzandiga sovg'a qilayotgan ota-onalar xato qilayotganlarini, farzandining beg'ubor yoshligini zulmatga otayotganlarini nahotki bilishmaydi?! "Zamon rivojlangan, texnika asri" yoki "telefonning foydali jihatlari ham bor" deya muammoni yengillashtirishingiz mumkin. Rad etmaymiz. Lekin bolalarni bu narsalardan, hech bo'lmasa, yoshligida asrash kerak emasmi?!

Ularni kuzata turib, yoshligimizdagi ba'zi xotiralarni hozirga qiyoslab ko'rdim. Bir kun kelib, bizning xotiralimiz "Bu qiziq" ruknidagi ma'lumotlar bo'lib qolsa, ajab emas!

Yoshligimizda qishloq bolalari orasida faol o'ynaladigan bir qancha o'yin turlari bo'lardi. O'zim ham o'ynagan va yodimda qolganlarini sizlarga ham ulashgim keldi.

"Beshtosh" o'yini — beshta tosh donasini ma'lum masofadagi chuqurchaga tushirish talab qilinadi. Chuqurchaga tushgan toshlar soniga qarab, turli shartlar ado etiladi.

"Chillak" — ikki uchi o'tkirlangan cho'pni uzoq masofaga urib uchirish va raqibingiz cho'pni tushgan joydan siz turgan kvadrat ichiga tushirishi kerak.



Quddus ASAD,

Guliston davlat universiteti magistranti, Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabining "Yosh adabiyotshunoslari" to'garagi rahbari.

"Ko'zboylama" — dalada bo'lsa, doira chizilib, bir kishining ko'zi bog'lanadi va u o'sha holatda kimnidir tutib olishi kerak bo'ladi. Ishtirokchilar doiradan chiqmagan holda tutqich bemasligi kerak. Qo'lga tushgan kishining ko'zi bog'lanadi va o'yin shunday davom etadi.

"Xo'roz jangi" — asosan, o'g'il bolalar, ba'zan qizlar ham o'ynaydi. Yerga chizilgan doira ichida qo'llarni orqaga qilib, bir oyoqda turiladi va yelkalar bilan raqibini doiradan chiqarib yuborish talab qilinadi.

"Oq terakmi, ko'k terak?" — ikki jamoa o'rtasida o'ynaladi. Maktabda eng ko'p o'ynaladigan o'yinlarimizdan biri. Jamoa a'zolari bir-birining qo'llarini mahkam tutib turadi, raqib jamoa esa uni kelib uzishga harakat qiladi. Uzolmasa, raqib jamoada qoladi, uzolsa, raqib jamoadan bir kishini o'z jamoasiga olib ketadi.

"Oq bayroq" — ikkita jamoa o'rtasida o'ynaladi. O'rtadan chegara chiziq tortilib, jamoa hududlari belgilanadi. O'sha chegaradan o'tib, raqib jamoaning bayrog'ini o'z hududiga olib o'tish talab qilinadi. Bu vazifa eng chopqir va epchil bolaning gardaniga yuklanadi. Raqib jamoa hududida sizni tutib olishsa, o'sha yerda "muzlatilasiz". Sherklaringiz sizga qo'l berib, qutqarib ketishi kerak bo'ladi. Qaysidir bayroq zabt etilgunicha o'yin davom etadi.

Shuningdek, **"Eshak mindi"**, **"Qumtosh"**, **"Mehmon-mehmon"**, **"Halloppa"**, **"Yashrinmachoq"**, **"Happak"** kabi yana o'nlab milliy o'yinlarimiz bor.

Ota-bobalarimiz bundan ham ko'p o'yinlarni bilishgan. Yoshligimiz o'sha o'yinlar bilan beg'ubor o'tgan. Hozirgi yoshlarga bu o'yinlar haqida so'zlab bersangiz, og'izlari bilan tinglashadi, hayratlanishadi. Bu o'yinlardan hozir "asar ham qolmagan" desam, "vahima qilma!" deyingiz mumkin. Lekin, ming afsuski, bu o'yinlar faqat bayramlarda, festivallarda, "Kelinlar qo'zg'aloni"dagi Farmonbibining tili bilan aytganda, "fon" uchun qo'yiladigan bo'lib qoldi.

Ishonmasangiz, yoshlarni kuzating. Yuqoridagi aytilgan yoki o'zingiz yoshligingizda o'ynagan nechta o'yinni uchratar ekansiz? Agar bo'lsa, o'sha yoshlarga havasdamiz, ularning baxtli bolaligi bor!

Sardor SA'DULLAYEV

DUO

OLGAN OTAXON



"Iltimos, yosh bolali, nogiron va yoshi katta yo'lovchilarga joy bering!" Yod bo'lib ketgan bu so'zlarni eshitib, xayolga cho'mib borarkanman, bir voqea o'ylarimdan chalg'ishga sabab bo'ldi. Ta'sirlanib ketdim.

Xullas, metroda ishdan qaytayotgan edim, poyezdga yoshi taxminan yetmishlardan oshgan otaxon chiqdi. Kimdir joy berishini kutib turdi, albatta. Hech kimdan sado bo'lmagandan keyin o'zi qatori bir mo'ysafid tengdoshiga joy bo'shatdi. Shunda yoshlar tomonidan emas, o'zining tengdoshi tarafidan hurmat ko'rsatilgan bobo ehtirom ko'rsatgan do'stini duo qildi: "Lohim umringiz uzoq, rizqingiz butun bo'lsin. Hech qachon yuzingiz sarg'aymasin, doimo el-yurt hurmatida bo'ling...".

Duo olgan otaxon xuddi bola kabi sevinib, qaddini tik tutganча masurlandi. Qoyil, tasanno. Mana madaniyat. Mana yoshi ulug'lar tomonidan "mentalitet"ning yuksak darajada hurmat qilinishi-yu, xuddi shunday darajada yoshlar tomonidan an'analarimiz oyoqosti qilinishi.

O'sha payt o'rindiqa o'tirganlar safida tog'ni talqon qilgudek, bir o'tirishda buqani yeb qo'yaman degan alp yigitlar ham bor edi. Lekin... Men bu yigitlarni ayblar ekanman, o'zining ham bu jarayonga nisbatan egallagan befarqlik pozitsiyamdan uyalib ketdim. Axir, o'sha do'stlaringga men ham "og'ayni, o'zingizdan kattaga joy bering", desam bo'lardi. Biroq bunga jur'at qilolmadim.

Atrofdagilar-chi? Ular ham mendek jur'atsizmikan yoki ularga bunaqa voqealarning qizigi yo'qmi?! Bilmadim...

YURTIMIZDA ILK BOR

Mustaqillikdan so'ng mamlakatimizda aholini ro'yxatga olish tadbiri birinchi marta 2023-yilda bo'lib o'tadi va har 10 yilda amalga oshiriladi.

Ro'yxatga olish natijasida:

- aholining sog'lig'ini mustahkamlash, xotin-qizlar va bolalar yashash shart-sharoitlarini yaxshilash, oilalarga yordam ko'rsatish bo'yicha choralarni ishlab chiqish maqsadida aholi tarkibidagi, mamlakatdagi demografik o'zgarishlarga doir ma'lumotlar bazasini kengaytirish;
- shaharlar va boshqa aholi punktlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning, mehnat resurslarini joylashtirish hamda ulardan foydalanishning uzoq, o'rta va qisqa muddatli prognozi hamda dasturlarini tayyorlash;
- ma'lumotlar asosida O'zbekistonning xalqaro reytingini oshirishga erishiladi.

Hilola QAMARIDDINOVA,

Olmazor tumani statistika bo'lim boshlig'i

2021-YILDA "YOSH KITOBXON" TANLOVI 3 TA BOSQICHDA TASHKIL ETILDI:

Birinchi bosqich tanlovning arizalar qabul qilish va saralash bosqichi bo'lib, unda tanlovda ishtirok etish istagini bildirgan yoshlardan arizalar qabul qilindi va ishtirokchilar test sinovi asosida saralandi. Unda ariza topshirgan yoshlar ilmiy-ommabop, o'zbek va jahon adabiyotiga, buyuk adiblarimiz hayoti va ijodiga oid 50 ta test savollariga javob berishdi.

Ikkinchi bosqich tanlovning hududiy (Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar) bosqichi bo'lib, dekabr-yanvar-fevral oylari davomida quyidagi 2 ta – "Badiiy asarlar bilimdoni" hamda "Tezkor savol-javob" shartlari asosida o'tkazildi.

Uchinchi bosqich tanlovning Respublika bosqichi bo'lib, quyidagi 5 ta – "Badiiy asarlar bilimdoni", "Tezkor savol-javob", "Buyuk muftakir va adib", "She'riyat" va "Erkin mavzu" shartlari asosida olib borildi.

2018-YIL



O'roqova Mahliyo Toshtemirovna,

"Kelajak bunyodkori" medali sovrindori.
Samarqand viloyati Paxtach tumani "Bo'ston" MFY



2019-YIL

Eshpo'latov Otabek Axtam o'g'li,

Toshkent viloyati Chirchiq shahri "Istiqlol" MFY



2020-YIL

Ismoilov Muhammadfozil Dilshodbek o'g'li,

Farg'ona viloyati O'zbekiston tumani "Oqmachit" MFY



2021-YIL

Nasimova Muxlisa Narzullo qizi,

Buxoro viloyati Buxoro shahri "Foshun" MFY

"Yosh kitobxon" tanlovining 2022-yilgi bosqichlarida foydalaniladigan ADABIYOTLAR RO'YXATI 10-14 yosh toifasi uchun

T/r	Kitob nomi	Muallifi
1.	"Go'ro'g'lining o'limi" dostoni (aytuvchi Rahmatulla shoir Yusuf o'g'li)	Xalq og'zaki ijodi
2.	"Avazxon" dostoni (aytuvchi Rahmatulla shoir Yusuf o'g'li)	Xalq og'zaki ijodi
3.	"Shoqalandar" dostoni (aytuvchi Rahmatulla shoir Yusuf o'g'li)	Xalq og'zaki ijodi
4.	"Meshpolvon jangga o'tlandi"	Anvar Obidjon
5.	"Hajviy hikoyalar"	Anvar Obidjon
6.	"Masxaraboz bola" (she'rlar)	Anvar Obidjon
7.	"Oygul bilan Baxtiyor"	Hamid Olimjon
8.	"Sariq devni minib"	Xudoyberdi To'xtaboyev
9.	"Yuz yil sarson sargardonlikda"	Erkin Malik
10.	"Zulmat ichra nur"	Mirkarim Osim
11.	"Alvido, bolalik"	Tohir Malik
12.	"Bolalik xotiralirim"	Oybek
13.	"Birinchi muallim"	Chingiz Aytmatov
14.	"Yaxshidir achchiq haqiqat" (to'plam)	Erkin Vohidov
15.	"Dunyoning ishlari"	O'tkir Hoshimov
16.	"Shum bola"	G'afur G'ulom
17.	"O'tmishdan ertaklar"	Abdulla Qahhor
18.	"Bola Alisher"	Oybek
19.	"Qizimga maktublar"	O'lmas Umarbekov
20.	"Shum bolaning nabiralari" (qissalar, hikoyalar)	Nosir Fozilov
21.	"Akramning sarguzashtlari" (qissalar va hikoyalar)	Pirimqul Qodirov
22.	"Xalq bo'l, elim" (to'plam)	Muhammad Yusuf
23.	"Mening Yulduzim" (she'rlar)	Erkin Vohidov
24.	"Guliston"	Sa'diy Sheroziy
25.	"Kalila va Dimna"	Hind xalq eposi
26.	"Bilmasvoy bilan do'stlarining boshidan kechirganlari"	Nikolay Nosov
27.	"O'n besh yoshli kapitan"	Jyul Vern
28.	"Tom Soyerning yangi sarguzashtlari"	Mark Tven
29.	"Bo'ri bolalarini qanday o'rgatadi"	Lev Tolstoy
30.	"Oltin bola" (ertaklar va voqealar)	Hans Kristian Andersen
31.	"Robinson Kruzoning sarguzashtlari"	Daniel Defo
32.	"Baron Myunxauzenning boshidan kechirganlari"	Erix Rudolf Raspe
33.	"Masallar"	Ezop
34.	"Ertaklar"	A.S.Pushkin
35.	"Men, buvim, iliko va Illarion"	Nodar Dumbadze
36.	"Guliverning sayohatlari"	Jonatan Svift
37.	"Chipollinoning boshidan kechirganlari"	Janni Rodari
38.	"Uch baqaloq"	Yuriy Olesha
39.	"Maugli"	Redyard Kipling
40.	"Tom tog'aning kulbasi"	Garriet Bicher-Stou
41.	"G'aroyib bolalar"	Aziz Nesin
42.	"Mumu"	Ivan Turgenev
43.	"Xo'rlangan bolalar" (qissa)	Vladimir Korolenko
44.	"Qor odam" (ertaklar)	Hans Kristian Andersen
45.	"Kish haqida qissa"	Jek London
46.	"Teddi"	Yuriy Kazakov
Ilmiy-ommabop adabiyotlar		
47.	"G'aroyib olam"	A.Sultonov
48.	"Qiziqarli bilimlar olamida"	Qodir To'rayev, Sattor Burxonov, Muhayyo Zokirova
49.	"Yozuvlar o'tmish sirlari shohidi"	Viktor Drachuk
Nashrlar		
50.	"Yoshlik" jurnali (2022-yil sonlari) O'zbekiston yoshlarining adabiy-ijtimoiy jurnali	

Siz ham tengdoshlaringiz kabi "Spark" avtomobilini qo'lga kiritishni xohlasangiz, telegramda quyidagi manzilda ro'yxatdan o'ting:

@yoshkitobxon_bot

YOSHLAR OVOZI

Bosh muharrir:
**Hamza
ABDULLAYEV**

Muassis:
O'zbekiston yoshlar ittifoqi
Markaziy Kengashi

Bosh hamkor:
O'zbekiston Respublikasi
Yoshlar ishlari agentligi

Navbatchi muharrir:
**Sardor
SA'DULLAYEV**

Musahhihlar:
**Rashid XO'JAMOV,
Qirmizoy HAKIMOVA**

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-dekabrda № 0242 raqamini bilan qayta ro'yxatdan o'tgan. Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida teriladi va saqlanadi. Tahririyat manzili: 100083, Toshkent, Matbuotchilar ko'chasi, 32. Telefonlar: (71) 233-22-16, (71) 236-79-95.

"Shara" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi boshqaruvchisi, A-3 formatda chop etiladi. Hajmi - 2 bosma tabaq. Korxonalar manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. Indeks: 203, 3203. Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma G-555, Adadi - 10586. Bosishga topshirish vaqti - 21.00. Topshirildi - 20.00.

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefonning orqali skaner qiling.



1 2 3 4 5 6